

# **Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi**

## **2018 -YIL QURILISH PUDRAT ISHLARI YANVAR – AVGUST OYLARIDA**

Joriy yilning yanvar – avgust oyida viloyat bo'yicha 2044,5 mlrd. so'mlik qurilish pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 337,1 mlrd.so'mni yoki jami qurilish ishlari xajmining 16,5 % foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,3 % ni tashkil qildi. Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari xajmining 51,7 %i yoki 1057,4 mlrd. so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 31,8 % ni yoki 650,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,7 % ni tashkil etdi. Ko'pgina tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, G'uzor tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 69,5 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 65,9 foizni, mos ravishda, Muborak tumanida – 100,0 mlrd.so'mni yoki 80,6 foizni, Nishon tumanida – 55,2 mlrd.so'm yoki 93,0 foizni, Kasbi tumanida – 81,4 mlrd.so'm yoki 95,9 foizni, Shahrisabz tumanida – 63,2 mlrd.so'm yoki 94,2 foizni tashkil etdi.


### **Raqamlar:**

**Qurilish-montaj ishlari hajmi – 2 044,5 mlrd.so'm**

**Yirik qurish-pudrat tashkilotlari ulushi – 16,5 %**

**Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi – 51,7 %**

**Qurilishda norasmiy sektoring ulushi – 31,8 %**



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,6 %ni tashkil etdi.

<b>JAMI (mlrd.so'm)</b>	<b>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha</b>			<b>Jami qurilish xajmidan</b>
	Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari	Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnikaviy qayta quollantirish
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>2044,5</b>	1627,5	146,9	270,1
<b>Nodavlat :</b>	<b>1993,8</b>	1627,5	112,7	253,6
<b>Davlat:</b>	<b>50,7</b>	-	34,2	16,5

Fuqorolik obyektlari qurilishi hajmi jami qurilish ishlari hajmida 7,2 %ni, hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,2 %ni tashkil qildi.

Viloyat  
bo'yicha jami  
**2044,5**




Nodavlat  
**1993,8**

Davlat  
**50,7**



**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati**

**2018 yil yanvar-avgust uchun**



Hududlar kesimida qurilish ishlari  
quyidagicha ifodalanadi

*shu jumladan:*

	<i>Jami</i>		<i>Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2044,5</b>	<b>100,1</b>	<b>115,6</b>	<b>74,7</b>
tumanlar:				
G'uzor t	69,5	65,9		
Dehqonobod t	67,0	101,0		
Qamashi t	43,7	100,2		
Qarshi t	195,3	103,1	3,3	3,2 M
Koson t	256,4	102,4	4,6	113,8
Kitob t	168,8	101,0		
Mirishkor t	58,1	106,0		
Muborak t	100,0	80,6	20,5	70,8
Nishon t	55,2	93,0	1,9	50,8
Kasbi t	81,4	95,9	1,7	146,4
Chiroqchi t	178,8	105,4		
Shahrisabz t	63,2	94,2		
Yakkabog' t	111,2	106,9	3,8	178,8
Qarshi sh	499,5	106,2	58,3	79,0
Shahrisabz sh	96,4	110,1	21,5	68,9




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1993,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,5 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat

shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 50,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 2,5 foizini tashkil qildi.

## Mulkchilik shakllari (foizda)



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (0375) 221-32-47